

UDK: 8.81.81-13.81'23

ENERGETIKA YO'NALISHLARINING INGLIZ TILI DARSLARIDA KEYS TEXNOLOGIYASINI QO'LLASH

Shohsanam Tohirova

Xorijiy tillar o'qituvchisi

Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti

tokhirovashohsanam9420@gmail.com

[Tel: +998993433013](tel:+998993433013)

Annotatsiya: Ushbu maqolada energetika yo'nalishi talabalariga ingliz tilinio'qitish metodikasi haqida fikrlar ilgari surilgan. Unda talabalarni ingliz tilini o'zlashtirishlarida yangi pedagogiktexnologiyalardan, ayniqsa keys texnologiyasidan foydalangan holda amaliy mashg'ulotlarni tashkil etishning ahamiyati haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: leksika, texnologiya, kasbiy rivojlanish, nogilologik yo'nalishlar, leksik kompetensiya, innovatsion g'oyalar, keys texnologiyalari, leksik minimum, leksik birliklar.

ПРИМЕНЕНИЕ КЕЙС-ТЕХНОЛОГИИ НА УРОКАХ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА ЭНЕРГЕТИЧЕСКИХ ПОЛЯ

Шохсанам Тохирова

Преподаватель иностранных языков

Каршинский инженерно-экономический институт

tokhirovashohsanam9420@gmail.com

[Tel: +998993433013](tel:+998993433013)

Аннотация: В данной статье представлены идеи о методике преподавания английского языка студентам-энергетикам. Говорится о важности организации производственной практики с использованием новых педагогических технологий, особенно кейс-технологии, в овладении студентами английским языком.

Ключевые слова: лексика, технология, профессиональное развитие, нефилологические направления, лексическая компетентность, инновационные идеи, кейс-технологии, лексический минимум, лексические единицы.

APPLICATION OF CASE TECHNOLOGY IN ENGLISH LANGUAGE LESSONS OF ENERGY FIELDS

Shohsanam Tohirova

Teacher of foreign languages
Karshi engineering-economics institute
tokhirovashohsanam9420@gmail.com
[Tel: +998993433013](tel:+998993433013)

Abstract: *This article presents ideas about the methodology of teaching English to energy students. It discusses the importance of planning practical lessons with cutting-edge educational technologies, particularly case technology, to help students become proficient in the English language.*

Key words: *lexicon, technology, professional development, non-philological trends, lexical competence, innovative ideas, case technologies, lexical minimum, lexical units.*

Kirish

XXI asrda ilm-fan va texnologiyada sodir bo'layotgan o'zgarishlar ingliz tilini turli xil davlatlararo universal tilga aylantirishga sabab bo'lmoqda. Siyosat, biznes, va savdo-sotiqda keng ommalashib kelayotgan ingliz tili bugungi kundagi yangi texnologiya va yangi bilimlarni o'zlashtirishda eng asosiy manba sifatida shakllanmoqda. Natijada esa, ingliz tilini o'zlashtirish bugungi kunning eng muhim talablaridan biriga aylandi. Tan olish joizki, energetika yo'nalishida ta'lim olayotgan talabalar nafaqat ingliz tilida erkin muloqot qila olish qobiliyatiga ega bo'lish balki keljakdagi kasbiy rivojlanish uchun ham ahamiyatli deb hisoblanmoqda. Natijada esa, ingliz tilida ravon so'zlasha oladigan ishchi kadrlar xalqaro mehnat bozorida juda qadrlanadi.

Shu sababli, hozirgi kunda o'qituvchilar uchun talabalarni xalqaro ma'qullangan standartlarga mos ta'lim faoliyatlariga tayyorlash juda muhimdir, o'rganilgan teorik bilimlarni amaliyotda qo'llashga yordam bera olish uchun dars jarayonlarini tashkil etishda usullar va texnologiyalardan foydalanish zarur. Bu esa mavjud va amaliy matnlarni ishlatish orqali ta'limiy adabiyotlarini tuzilishini talab qiladi.

Materiallar va metodlar

Nofilologik yo'nalishlarda ta'lim olayotgan talabalar uchun eng asosiy vazifa bu aniq til materialini puxta o'rganishdir. Ya'niki, leksika, grammatika, fonetika, orfografiya, afsuski berilgan qisqa vaqt ichida bu til birliklarining hammasini o'zlashtirish anchagina murakkab. Bugungi kunda nofilologik ta'lim yo'nalishdagi o'qituvchilardan talabalarining leksik kompetensiyasini rivojlantirish vazifasi qo'yilmoqda. Qolgan til birliklari esa mustaqil ish vazifasi ko'rinishida talabaga taqdim etilmoqda. Shuning uchun ham leksika chet tillarni o'rganish metodikasi mazmunini tashkil etuvchi bir qator masalalar ichida eng asosiylaridan biri hisoblanadi. Bu holatda talabalar, sohaga oid bilimni egallashda alohida terminologik lug'atga ehtiyoj sezadilar. Sohaga oid terminlar va atamalarni o'z ichiga olgan lug'at nafaqat talabalar uchun balki o'qituvchilar uchun ham zarur qo'llanma bo'la oladi. Bundan tashqari bunday lug'at kelajakdagi ilmiy izlanishlar, izchil tuzilgan darsliklar uchun ham yetarlicha manba boladi oladi degan umiddamiz. Leksik minimum tanlashda esa albatta har bir oliy ta'lim muassasining talab va takliflari, maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda qaror qilinadi.

Shunday ekan nofilologik oliy o'quv yurtlarida tanlanadigan leksik birliklar chet til o'qitish maqsadi: o'zganing nutqini va sohaga oid matnni o'qib tushunish hamda o'z fikrini bayon qila olish malaka va ko'nikmalarini shakllantirish kabilarni amalga oshirishni ko'zda tutishi kerak bo'ladi.

Natijalar va muhokama

Shunday ekan, hozirgi kunda o'qituvchilar xalqaro tasdiqlangan me'yorlarga javob bera oladigan o'quv mashg'ulotlarga tayyorgarlik ko'rish, o'rganilgan nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llashga yordam beradigan metod va texnologiyalardan foydalangan holda dars jarayonlarini tashkil etishlari maqsadga muvofiq. Bu esa o'z o'rnida bugungi kunda mavjud bo'lgan, amalda qo'llanilayotgan o'quv adabiyotlarini autentik materiallardan foydalanilgan holda tuzishni talab qiladi. Yuqoridagi fikrimiz isboti sifatida, R.S.Albert, M.A. Runcolarning quyidagi fikrlari aynan o'qituvchilarning o'quv jarayoniga bo'lgan munosabatlari qanday bo'lishi kerakligini ko'rsatib bergan:

Buning uchun ular ijodiy, innovatsion g'oyalarni topib, o'quv mashg'ulotlarida qo'llashlari, ikki baravar foyda keltirishi kerak. Bir tomondan, ijodiy o'qitish strategiyalari o'rganishning katalizatori bo'lgan motivatsiyani kuchaytiradi. O'qitishning innovatsion strategiyalaridan foydalanish so'nggi o'n yillikdan beri dolzarb mavzu bo'lib kelgan. Ko'pgina tadqiqotlar ijodkorlikni turli shaxslarning shaxsiy xususiyati va intellektual qobiliyati sifatida ko'rib chiqadi, bu ijodkorlikni daho va aql bilan bog'laydi. [1;16-31]

Nofilologik yo'nalishlarda ta'lim berayotgan har bir o'qituvchi o'quv materiallarini shu yuqoridagi maqsadlarni ko'zlagan holatda tanlashi talab etiladi. Innovatsion metod va texnologiyalardan, masalan keys texnologiyasidan foydalanish talabalarining ijodkorlik qobiliyatlarini ko'rsatishlariga asos bo'la oladi. O'ylashimizcha, faqatgina innovatsion yangi tadqiqot metodlaridan foydalanilgan holatdagina talabalar kasbiy va shaxsiy ko'nikmalarini o'stira olishadi. O'z navbatida bu o'qituvchiga ham bir qancha foyda va yengiliklar olib keladi. Masalan, nofilologik ingliz tili o'qituvchilarining eng katta muammolari bu ixtisoslikka oid bilimlarni(ya'ni, bir muncha mutaxassis bilimlarning yetishmovchligi) egallashlari talab etiladi. Bu texnologiya orqali, talabalar ingliz tili o'qituvchilariga izohlash murakkablik tug'diradigan bir qancha nazariy asosolarni talabalar o'zlari izlanib o'rganadilar. O'qituvchilarga qo'yiladigan talab esa faqatgina fanga oid atamalar va birikmalarni tarjimalarini tushuntirib berish bo'ladi.

Dudley Evans and St. Johnning fikriga ko'ra, ESP o'quvchilarning ehtiyojlarini qondirish uchun ishlab chiqilgan bo'lib, u xizmat ko'rsatadigan fanlarning metodologiyasi va faoliyatidan foydalanadi va til, ko'nikmalar, nutq va ushbu faoliyatga mos keladigan janrlarga qaratilgan. ESPning yana bir muhim xususiyati o'zgaruvchan siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy tendentsiyalarga javob berishdir va bu moslashuvchanlik uning turli kontekstlarga doimiy moslashishini talab qiladi. [2;343-344]

Shuning uchun ham nofilologik yo'nalishlaridagi ingliz tili o'qituvchilarining vazifalari anchagina murakkabdir. Ular o'zgarib borayotgan har

bir jabha bilan hamohang bo'lishlari talab etiladi. Energetika yo'nalishida ingliz tilidan dars beruvchi o'qituvchilar ham shu talablarga javob berishi lozim. Shu bilan birga bugungi kunda butun dunyoni tashvishga solayotgan energiya tanqisligi va muqobil energiya manbalaridan foydalanishning yangi usullarini yaratish kabi muammolarga yechim topishda bu yo'nalish talabalarini ingliz tilida erkin muloqot qiliuvchi kadrlar sifatida shakllantirish maqsadga muvofiq.

Keys texnologiyalari orqali o'quv mashg'ulotlari tashkil etish bir qancha bosqichlardan iborat bo'ladi. Keyslarning dars jarayoniga tatbiq etish usullari haqida Mark P. Mostert o'zining ilmiy maqolasida keltirib o'tgan. Uning ta'kidlashicha, vaziyatga asoslangan o'qitishning ko'p qirraliligini hisobga olgan holda, o'qituvchilar foydalanishi mumkin bo'lgan ko'plab o'qitish konfiguratsiyasi mavjud. Biroq, tayyorlash va tahlil qilish ketma-ketligi odatda quyidagicha sodir bo'ladi:

Tayyorgarlik bosqichi: Dastlab talabalar darsdan oldin muammoli vaziyatlarni tayyorlashlari kerak. Ular allaqachon to'liq o'rganib bo'lgan (a)fakt va kontekst uchun anchagina vaqt sarflaganliklari(b) keysdagi aniq yoki kutiladigan muammolar o'rganilganligi(c) kurs mazmunini har bir aniq yoki potentsial muammoli vaziyat muammosiga moslashtirish yo'llarini o'rganganligi va (d) potentsial yechimlar yoki harakat rejalari haqida fikr yuritganligi aniq bo'lishi shart.

Muhokama bosqichi: Ish o'qituvchi tomonidan tanlangan formatda (katta guruh, kichik guruh va boshqalar) sinfda muhokama qilinadi. Muhokama o'qituvchining o'qitish maqsadlari nuqtai nazaridan, masalani hal qilishda yuzaga kelgan muammolar va yechimlarga mos kelishi kerak.

Tahlil bosqichi: Dars davomida yoki undan keyin vaziyatni muhokama qilishdan so'ng, talabalar o'zlarining dastlabki tayyorgarliklari natijasida olingan g'oyalar, kuzatishlar va yechimlarning yozma tahlillarini (individual yoki guruh) tuzadilar.[3;835-836]

Yuqorida berilgan bosqichlarni quyida berilgan keys stadi orqali bosqichlarga bo'lingan holda ko'rib chiqsak:

Native American reservations are among the most economically disadvantaged regions in the United States; lacking access to economic and educational opportunities that are exacerbated by “energy insecurity” due to insufficient connectivity to the electric grid and power outages. Local renewable energy sources such as wind, solar, and biomass offer energy alternatives but their implementation encounters barriers such as lack of financing, infrastructure, and expertise, as well as divergent attitudes among tribal leaders.

Biomass, in particular, could be a source of stable base-load power that is abundant and scalable in many rural communities.

*Mahalliy Amerika zaxiralari Qo‘shma Shtatlardagi iqtisodiy jihatdan eng noqulay mintaqalar qatoriga kiradi; elektr tarmog‘iga yetarli darajada ulanish va elektr uzilishlari tufayli "energiya xavfsizligi" tufayli kuchaygan iqtisodiy va ta’lim imkoniyatlaridan mahrum. Shamol, quyosh va biomassa kabi mahalliy qayta tiklanadigan energiya manbalari kabi energiya muqobillarini taklif qiladi, biroq ularni amalga oshirishda moliya, infratuzilma va tajriba yetishmasligi, shuningdek, qabila yetakchilari o‘rtasida turlicha munosabat kabi to‘siqlar yuzaga keladi. **Biomassa, xususan, ko‘plab qishloq jamoalarida mo‘l-ko‘l va kengaytirilishi mumkin bo‘lgan barqaror bazaviy quvvat manbai bo‘lishi mumkin.**[4; 1-12]*

Berilgan energetika yo‘nalishiga oid keysni Mark P. Mostert taklif qilgandek bir nechta bosqichlarda tahlilini ko‘rib chiqsak:

Tayyorgarlik bosqichi: Dastlab talabalarga o‘qituvchi tomonidan keys taqdim qilinishidan oldin ularga kasbga oid leksik birliklar izohlari bilan tushuntirib beriladi. Berilgan keysdagi mutaxassislikka oid leksik birliklarni tahlil qiladigan bo‘lsak ular quyidagilardir(1-jadval):

1-jadval

Leksik birliklar			
1	Reservation	Something that is retained for future use	Zahira
2	Economically disadvantaged	In the context, it is used for the area that has some economic	Iqtodiy jihatdan qoloq

		challenges	
3	Access	A way or means of entering or approaching	Foydalanish huquqi, kirish
4	Exacerbate	To make something worse	Muammoni yanada yomonlashtirmoq
5	Energy insecurity	Where countries have an interrupted supply of energy or cannot afford to provide energy	Energiya manbaalariga bo'lgan ishonchsizlik
6	Electric grid	Interconnected network for electricity delivery	Elektr tarmog'i
7	Power outage	The loss of electrical power supply	Elektr uzilishi
8	Renewable energy	Energy from a source that is not depleted when used	Qayta tiklanuvchi energiya
9	Wind (energy)	The process by which the wind is used to generate electricity	Shamol energiyasi
10	Solar	Radiant energy emitted by the sun	Quyoshga oid energiya
11	Biomass	Renewable organic material that comes from plants and animals	Biomassa
12	Energy alternative	Energy that does not come from fossil fuels	Muqobil energiya
13	Implementation	The process of putting a decision or plan into effect	Amalga oshirish, joriy etish
14	Encounter	To face or to meet	Duch kelmoq, uchratmoq
15	Barrier	A fence or other obstacle that prevents movement or access	To'siq, muammo
16	Infrastructure	The system of public works of a country, state, region	Infratuzilma
17	Expertise	A high level of skill or knowledge	Mutaxassislik

Taqdim etilgan leksik birliklarni talabalarga dastlab ingliz tilidagi ta'riflari beriladi va so'zlarning tarjimasini o'zbek tilidagi tarjimasini aytishlari so'raladi. Shundan so'ng muammoga oid ma'lumotlar ingliz tilida taqdim etiladi. Talabalar Qo'shma shtatlardagi iqtisodiy holatlarni o'rganadilar. Geografik joylashuviga asoslangan holda energiya tanqisligi muammosiga yechimlar beradilar, yoki bu muqobil energiya ta'minotidan foydalanilganda qanday muammolar yuzaga

kelishini tahlil qiladilar. Eng oxirida asosiy muammoli vaziyatni tahlil uchun shakllantiradilar.

Muhokama bosqichi: Muhokama bosqichida o'qituvchi talablarni asosan guruh ko'lamidan kelib chiqib katta, o'rta va kichik guruhlarga ajratadi. So'ng o'qituvchi talabalarni muhokama qilishga va bir nechta yechimlar berishga rag'batlantiradi. Bunda o'qituvchi tanlagan metod va texnologiyalar, talabalar beradigan yechimlar va takliflar o'qitish maqsadiga muvofiq kelishi shart. Masalan, yuqoridagi keysda talabalar hali guruhlarga bo'linmagan holda, muammoni yechishda muqobil energiya manbalaridan quyosh, shamol va biomassa kabi yechimlarni beradilar va o'qituvchi ularni berilgan misollarga asoslangan holda guruhlarga ajratadi: misol uchun quyosh energiyasini taklif qilayotgan bir guruh talabalar bu energiyadan foydalanishda yuzaga keladigan muammolar va yutuqlarni tahlil qilishadi. Talabalar orasida o'qituvchi tomonidan tayinlangan Moderator talabalar tomonidan foydalanilgan mutaxassislikka oid leksik birliklarni yozib oladi va muhokamadan so'ng o'qituvchiga taqdim etadi.

Tahlil bosqichi: Bu so'nggi bosqich hisoblanib, o'qituvchi muhakama bosqichida berilgan barcha potensial yechim va takliflarni jamlovchi ekspert rolini talabalar orasidan tayinlaydi. Ekspert talabalar og'zaki yoki yozma shaklda berilgan talabalar ishlarini tekshiradi, leksik birliklarning to'g'ri foydalanganligini tahlil qiladi. Shundan so'ng talabalar quyosh va shamol energiyasidan foydalanish uchun moliyaviy, infratuzilma va tajribaga oid muammolar to'sqinlik qilishi mumkinligini xulosa qilishadi. Bu bosqichda talabalar guruhlashmagan holda umumiy tahlil qiladilar. Umumiy xulosada esa ular biomassa eng ma'qul yechim bo'la oladi degan qarorga keladilar. Bunga esa qishloq sharoiti bo'lgani va texnologiyasidan foydalanish osonligi hisobga olingan holda qaror qabul qilinadi.

Xulosalar

B.Xoliyorov pedagogik texnologiyalar haqida quyidagi fikrlarni o'z maqolalarida keltirib o'tganlar: "Pedagogik texnologiyalarning asosiy mazmuni, insonning ehtiyojlariga, qiziqishlariga, iste'dodlariga va qobiliyatlariga asoslangan holatda tanlanishi lozim. Shuningdek, ta'limning mazmuni insonning shakllanishi

va rivojlanishi uchun muhitni yaratib berishdadir. Shuning uchun, ta'lim mazmuni insonlarning g'oyalari va ular tanlagan standartlariga asoslanishi kerak." [5;78-79] Ko'rinib turibdiki, to'g'ri tanlangan pedagogik texnologiya ta'lim mazmuni belgilab beradi. Shunday ekan har bir o'qituvchi tanlagan texnologiya talabaning ehtiyojlari, qobiliyatlari, istak va xohishlariga asoslangan holda bo'lishi maqsadga muvofiqdir.

Bu tahlildan so'ng talabalar ingliz tilida o'z mutaxassisliklariga oid bilim va ko'nikmalarni rivojlantirishdan tashqari sohaga oid leksik kompetensiyalarini samarali rivojlantira oladilar. Bu texnologiya orqali ular jamoaviy ishlashni o'rganadilar hamda kelajakdagi kasbiy faoliyatlari uchun kerakli bo'lgan ingliz tilidagi bilim va ko'nikmalarini oshirishadi.

References:

1. R.S. Albert, M.A. Runco, A history of research on creativity, in R.J. Sternberg (ed.), Handbook of creativity, New York, NY, US: Cambridge University Press, (1999) 16-31.]
2. Dudely-Evans, Tony & Jo St John., 1998. *Developments in English for Specific Purposes. A Multi-disciplinary Approach*, Cambridge University Press, Cambridge
3. Mark P. Mostert. Challenges of Case-Based Teaching. The Behavior Analyst Today Volume 8, Issue 4, 2007
4. Lauren K.D'Souza. Renewable Energy on Tribal Lands: A Feasibility Study for a Biomass-to-Energy Plant on the Cocopah Reservation in Arizona *Case Studies in the Environment* (2019) 3 (1): 1-12. <https://doi.org/10.1525/cse.2018.001792>
5. B.H. Xoliyorov. New methods of pedagogical technologies used in foreign language teaching. NOVATEUR PUBLICATIONS Journal NX- A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal ISSN No: 2581 - 4230 VOLUME 8, ISSUE 4, Apr. -2022 78-79
6. Sh.Y. Tohirova, The importance of case technology in practical English classes in non-philological educational institutions, S/6(3)-2023 SCIENCE PROBLEMS. UZIJTIMOIY GUMANITAR FANLARINING DOLZARBMUAMMOLARI No S/6(3)- 230-232